

**DEVELOPMENT OF ELECTRONIC COMMERCE FIELD AND ITS FUTURE PROSPECTS**

Matniyazov Rahim Radjebbaevich

Department of "Electronic Commerce and Digital Economy"

Senior Lecturer Tashkent Financial Institute

rmatniyozov668@gmail.com

Jurabekova Khumora Muzaffar qizi

Student of Tashkent Institute of Finance

jurabekovaxumora@gmail.com

**ANNOTATION**

Taking into account the fact that everything is digitized and the role of the Internet in our lives is becoming more and more important, we can predict that e-commerce will become an integral part of the country's economy in the future. This article describes the development of the e-commerce sector and its future prospects, as well as the problems that arise in its establishment in our country and its impact on the economy, as well as the measures taken in this area, its legal foundations, directions of development and policy, you can learn about electronic commerce subjects.

**Keywords:** e-commerce, literacy, internet, reliability, payment system, logistics, information technology, transactions, communications.

**ELEKTRON TIJORAT SOHASINING RIVOJI VA UNING KELAJAK ISTIQBOLLARI**

Matniyozov Raxim Rajabbayevich

"Elektron tijorat va raqamli iqtisodiyot" kafedrası Katta o'qituvchisi

Toshkent Moliya Instituti

rmatniyozov668@gmail.com

Jo'rabekova Xumora Muzaffar qizi

Toshkent moliya insituti talabasi

jurabekovaxumora@gmail.com

**ANNOTATSIYA**

Hozirgi kunda har bir narsa raqamlashib kelayotganini va internetning hayotimizda tutgan o'rnini kundan-kun muhimlashib borayotganini inobatga olganda kelajakda elektron tijorat mamlakat iqtisodiyotining ajralmas qismi bo'lishini bashorat qilishimiz mumkin. Ushbu maqolada elektron tijorat sohasining rivoji va uning kelajakdagi istiqbollari haqida, hamda, yurtimizda o'rnatilishida yuzaga keladigan muammolar va uning iqtisodiyotga bo'ladigan ta'siri, shuningdek, bu sohada olib borilayotgan chora-tadbirlar, uning huquqiy asoslari, rivojlantirish yo'nalishlari va siyosati, elektron tijorat subyektlari haqida bilib olishingiz mumkin.

**Kalit soʻzlar:** elektron tijorat, savodxonlik, internet, ishonchlilik, to'lov tizimi, logistika, axborot texnologiyalari, tranzaksiyalar, kommunikatsiyalar.

## РАЗВИТИЕ ОБЛАСТИ ЭЛЕКТРОННОЙ КОММЕРЦИИ И ЕЕ ПЕРСПЕКТИВЫ НА БУДУЩЕЕ

Ташкентский Финансовый Институт

Кафедра "Электронная коммерция и цифровая экономика"

Старший преподаватель Матниязов Рахим Раджаббаевич

rmatniyozov668@gmail.com

Студент Ташкентского Финансового Института

Журабекова Хумора Музаффар кизи

jurabekovaxumora@gmail.com

### АННОТАЦИЯ

Принимая во внимание тот факт, что все оцифровывается и роль Интернета в нашей жизни становится все более значимой, можно прогнозировать, что электронная коммерция в будущем станет неотъемлемой частью экономики страны. В данной статье описывается развитие сектора электронной коммерции и его дальнейшие перспективы, а также проблемы, возникающие при его становлении в нашей стране и его влияние на экономику, а также меры, принимаемые в этой сфере, его правовые основы, направления развития и политики, вы можете узнать о субъектах электронной коммерции.

**Ключевые слова:** электронная коммерция, грамотность, интернет, надежность, платежная система, логистика, информационные технологии, транзакции, коммуникации.

### KIRISH

Elektron tijorat bu tovar va xizmatlarni savdosi hamda bu tranzaksiyalarni amalga oshirish uchun pul va ma'lumot almashinuvining onlayn ko'rinishi.

Elektron tijorat faoliyati O'zbekiston Respublikasining "Elektron tijorat to'g'risidagi"gi 2004 yil 29 apreldagi 613-II son Qonuni bilan belgilanadi va amalga oshiriladi. Mazkur qonunning 3-moddasida elektron tijoratga "Axborot tizimlaridan foydalangan holda tuzadigan shartnomaga muvofiq amalga oshiraladigan mahsulot oldi-sotdisi" deb tushuncha berilgan.

Elektron tijorat Internet tarmog'idagi tijorat sohasiga oid faollikni, undagi oldi-sotdini amalga oshirilishini ifodalash uchun qo'llaniladi. U kompyuter tarmog'idan foydalangan holda harid qilish, sotish, servis xizmati ko'rsatishni amalga oshirish, marketing tadbirlarini o'tkazish imkoniyatini ta'minlaydi [1]. (*A.O.Ro'ziyev, Elektron tijorat darslik.2021*)

**Adabiyotlar sharhi.** Internet texnologiyalarining mavjudligi va uning davomli o'sishi dunyo bo'ylab foydalanuvchilar uchun IT xizmatlari va ulardan turli xil yo'llarda foydalanish uchun ajoyib imkoniyatlarni yaratdi. Biznesni onlayn yuritish uchun IT texnologiyalaridan foydalanish e-tijorat deb ataladi [2]. (*Christian Mbayo, Asa Romeo Asa.2015*)

Elektron tijoratning eng ko'p tarqalgan modellari:

1. B2B-bu elektron tijoratning dunyo bo'ylab katta qismini tashkil qiladi. Bunda

biznes tovar yoki xizmatni biznesga sotadi.

*Alibaba.com* bunga misol bo'ladi.

2. B2C-bunda biznesning tovar yoki xizmatining xaridori iste'molchi bo'ladi.

*Aliexpress.com* sayti bu modelning bir misolidir.

3. C2C-iste'molchi tovar yoki xizmatini iste'molchiga sotadi.

4. C2B-iste'molchi tovar yoki xizmatini biznes sotib oladi.

Elektron tijorat bozorining boshlang'ich bosqichlarida jadal rivojlanishi birinchi navbatda to'lov tizimi, bank, provayder xizmati internetga kirish imkoniyatining o'sishi, mobil aloqa, dasturiy ta'minot va apparat (qurilma) vositalarini yaratuvchilar, hamda o'z mahsulot va xizmatlarini bozorga chiqarishga talabgorlarning oshib borishi bilan bog'liq. Elektron tijoratning o'ziga xos xususiyati, ushbu tizimda foydalanayotgan ma'lumot almashinuv tizimi protokoli boshqa tizimdagiga o'xshash protokollarga mos kelmaydi. Elektron tijorat tizimini shakllanishida har bir tashkilot yoki muassasa o'zining standartlarini tavsiya etib, uni tadbqiq etish tarafdori bo'ladilar. Bu vaqtda kichik yo'nalishga ega bo'lgan tashkilotlar norozilik bildiradilar. Nomuvofiqlik elektron tijoratni ommaviy va keng doiradagi foydalanuvchilarga ruxsat berishni cheklaydi. Keyinchalik bu nomuvofiqlik elektron tijorat bozori infrastrukturasi tashkil topishi bilan bartaraf etilishi mumkin [3] (*U.Q. Yakubov, M.I. Azizova, M. Yu. Jumaniyozova, "Elektron tijorat" fanidan O'quv-uslubiy majmua, 2019*).

**Tadqiqot metadalogiyasi.** Mamlakatimizda elektron tijorat asta sekinlik bilan isloh qilinayotganini alohida ta'kidlash joizdir. Hozirgi kunda O'zbekiston rivojlanib borayotgan davlatlar safiga qo'shilgan va elektron tijoratning joriy qilinishida bir qator muammolar yuzaga kelmoqda.

**Tahlil va natijalar muhokamasi.** Rivojlanib borayotgan mamlakatlardagi e-tijorat rivojlangan mamlakatlardagiga nisbatan internet aloqalariga ishonchsizlik, infrastrukturaning yetarli emasligi sababli unga kirishdagi baland narx kabi qator muammolar hamda internet kommunikatsiya texnologiyalarining quyi darajadagiligi katta to'siqlarni yuzaga keltirmoqda. [4] (*Molla va Licker, 2005*)

Texnologiya samaradorligi e-tijorat uchun muhim hisoblanadi [2]. (*Christian Mbayo Kabango, Asa Romeo Asa, 2015*) E-tijoratdan ya'ni veb-sayt yoki turli xil ilovalardan foydalanish mobil telefonlar yoki shaxsiy kompyuterlar mavjud bo'lsagina mumkin bo'ladi [5] (*Odedra Straub, 2003*). Ma'lumki, aholi orasida texnologiyalar bilan ta'minlanganlik darajasi juda past. Elektron tijorat xizmatlaridan foydalanish va uni yuritish uchun bizga axborot texnologiyalari vositalari zarur bo'ladi. Ammo hozirgi kunda O'zbekiston aholisining ko'p qismi kompyuter va shunga o'xshash gadjetlar narxi balandligi sababli ularni xarid qilish imkoniyatiga ega emas.

Internetdan foydalanish narxlari balandligi e-tijorat rivojlanishini sekinlashtiradigan muhim omillardan biri hisoblanadi. O'zbekiston internet narxi qimmat bo'lgan davlatlardan biri ekanligi barchamizga ma'lumdir. Ayniqsa chekka

hududlarida internetning o'zi yo'qligi va ishonchsiz elektr ta'minoti achinarli holat hisoblanadi. Bu qishloq hududida yashovchi onlayn savdo qatnashchilarining imkoniyatini ma'lum darajada cheklab qo'yadi.

Internet tezligi rivojlanayotgan davlatlarda rivojlangan davlatlardan farq qiladi: sezilarli darajada past. E-tijorat foydalanuvchisi bo'lish uchun sifatli internet bo'lishi shart. Ammo

sifatli internet yetkazib beruvchi serverlar va aloqa tizimlari jahon standartlariga mos kelmaydi. Xususan, O'zbekistonda internetdan foydalanish imkoniyatlari yuqoridagi sabablar tufayli cheklangan. Aholi orasida texnologik qurilmalardan foydalanish savodxonligi juda past: bunga turli xil sabablarni keltirish mumkin. Aholiga o'rgatish uchun malakali kadrlarni yetishmovchiligi masalaning tom ma'nodagi ildizidir. Buning uchun kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish yoki tizimdagi ma'lum kamchiliklarni bartaraf etish zarur. Internetdan foydalanish ma'daniyati to'liq rivojlanib ulgurmagan. Internetning funksiyalari haqida aholi orasida yetarlicha tushun-chalar shakllanmaganligi sababli uning to'liq imkoniyatlaridan foydalanishi cheklangan.

Rivojlanayotgan davlatlardagi aholining xususan, kam daromadli va qishloq hududlaridagi fuqarolarning ko'pchiligida telefon servislari uchun mablag' yetishmovchiligi kuzatiladi [6](OECD,2004). Bu yerdagi barcha muammolar avvalambor davlat iqtisodiyoti, siyosati, ta'lim tizimi va aholisi bilan chambarchas bog'liqdir. Jamiyatning u yoki bu bo'g'inini yaxshilash orqali emas balki barcha tuzilmalar va tizimlarni tubdan isloh qilish lozim. Ishonch elektron tijorat uchun asosiy talablardan biri hisoblanadi.[7] (Japhet,Usman;2010) Virtual olamda tijorat yurituvchilar uchun xaridorlar ishonchi muhim hisoblanadi. Iste'molchi o'zi sotib olayotgan tovar yoki xizmatning sifatiga to'liq ishongan bo'ladi u yetkazib berilgandan keyin uning sifati iste'molchiga to'laqonli ma'qul bo'lishi lozim. Bu xaridorlar ishonchini qozonishning asosiy yo'llaridan biridir. Yetkazib berish xizmati ham ishonchli bo'lishi kerak. Xaridor biron-bir veb-sayt xizmatidan foydalanishda o'zining shaxsiy malumotlari bo'lgan akkauntini kiritadi. Veb-sayt egasi esa har bir xaridorning shaxsiy ma'lumotlarini sir tuta olishi va veb-sayt xavfsizligini ta'minlovchi tizimga ega bo'lishi lozim. To'lov tizimi xavfsizligi yuqori bo'lmaganligi sababli sotib oluvchilarda turli xil shubha va gumonlar paydo bo'lishi mumkin. Hech kim moliyaviy tomondan zarar ko'rishni istamaydi. Onlayn to'lov tizimidagi samaradorlik yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi sababli to'lov qilishda ba'zi bir tushunmovchiliklar yuzaga kelmoqda: qanaqa usulda qanday qilib to'lov qilish haqida hali ko'p tushunmovchiliklar bo'lgan jamiyatda tushunish murakkab bo'lgan ilovalardan foydalanish ham bir to'siq bo'ladi. Ularning o'rniga tushunish uchun sodda bo'lgan ilovalardan foydalanish e-tijorat samaradorligini oshiradi.

Logistika sohasiga ham alohida e'tibor qaratish lozim. Yetkazib berish xizmatidagi ba'zi bir xato va kamchiliklar sababli elektron tijorat yurituvchilar faoliyatida jiddiy to'siqlar payo bo'lmoqda. Tijorat yurituvchi sotib olingan Tovar yoki xizmatning aniq yetkazib berilishini ta'minlashi lozim. Bu kelajakda ham veb-saytning ishonchli tijorat yuritishga kafil bo'ladi.

Yetkazib berish xizmati ko'p vaqtni olishi va narxlari muqobil emasligi bilan ham elektron tijorat rivojlanishi jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunga sabab mamlakatimizda pochta tizimi mukammal emasligidir. Elektron tijoratda pochta tizimini davlat o'z nazorati ostiga olishi lozim. Yetkazib berish muddati, xavfsizligi to'liq davlat tomonidan ta'minlab berilishi kerak.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, elektron tijorat bizga cheklanmagan qulayliklar eshigini ochadi, ammo rivojlanib borayotgan davlatlarda xususan, O'zbekistonda ham elektron tijoratni joriy qilishda turli xil muammolar kelib chiqishi tabiiy hol hisoblanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. “Elektron tijorat” Darslik.(1-qism) –T.: “Nihol print”, 2021.A.O.Ro’ziyev.
2. “Factors influencing e-commerce development: Implications for the developing countries” Christian Mbayo, Asa Romeo Asa. International Journal of Innovation and Economic Development. 2015.
3. “Elektron tijorat” fanidan O’quv - uslubiy majmua. U.Q.Yakubov, M.I.Azizova, M.Yu.Jumaniyozova. 2019.
4. “E-Commerce Adoption in Developing Countries: A Model and Instrument. Information & Management” Molla, A. and Licker, P.S. American Journal of Industrial and Business Management.(2005)
5. “E-Commerce and Development”: Whose development? Mayuri Odedra-Straub, ICT Research and Consultancy.(2003)
6. OECD Principles of Corporate Governance - 2004 Edition
7. “The Roles of Information and Communication Technologies (ICTs) and E-Commerce as Agents of Nigeria’s Economic Development: Review of Challenges and Prospects” Japhet, E.L. and Usman, A.T. Wireless Engineering and Technology (2019)